

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKUR RIVOJLANISHIDA JISMONIY VA PSIXOLOGIK TARAQQIYOTNING TA'SIRI

Karimqulova Firuza Numonjonovna

O'qituvchi-tadqiqotchi

E-mail: k.firuza1998@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurning shakllanishida jismoniy va psixologik rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Kreativ tafakkur — bu bolaning erkin fikrlashi, yangilik yarata olish qobiliyati bo'lib, uning rivojlanishi bolalik davrining dastlabki bosqichlaridayoq asos solinadi. Bu jarayonda bolaning fiziologik yetilishi, emotsional barqarorligi, muloqotga kirishuvchanligi va erkin harakat qila olishi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, jismoniy va psixologik taraqqiyot kreativ tafakkurning tabiiy asosidir.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, jismoniy rivojlanish, psixologik holat, maktabgacha yosh, ijodkorlik, pedagogika

Аннотация: Целью данного исследования является анализ физических и когнитивных аспектов дошкольного мышления в образовательных статьях. Творческое мышление — это способность свободно мыслить и создавать новое, и его развитие закладывается в самом начале детства. В этом процессе важную роль играют физиологическое созревание, эмоциональное развитие, коммуникативная компетентность и свободное движение. Исследование показывает, что физическое и когнитивное развитие являются основой творческого мышления.

Ключевые слова: творческое мышление, физическое развитие, психологическое состояние, дошкольный возраст, креативность, педагогика

Annotation. This study aims to analyze the physical and cognitive aspects of preschool thinking in educational articles. Creative thinking is the ability to think freely and create new things, and its development is based on the very beginning of childhood. In this process, physiological maturation, emotional development, communicative competence, and free movement play an important role. The study shows that physical and cognitive development are the basis of creative thinking.

Keywords: creative thinking, physical development, psychological state, preschool age, creativity, pedagogy

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yaratishga qodir bo'lgan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi davr — bu shaxsning asosiy psixologik va fiziologik poydevori shakllanadigan bosqichdir. Shu sababli, kreativ tafakkur — bola intellektual salohiyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida, aynan shu bosqichda shakllanishi zarur. Kreativlik (ijodkorlik) — bu muammoga noodatiy yondasha olish, yangi g'oyalar yaratish, mavjud voqealarga o'zgacha nazar bilan qaray olish qobiliyatidir. Bunday salohiyat faqat aqliy emas, balki jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, har tomonlama rivojlangan bolalarda samarali shakllanadi.

ASOSIY QISM

1. Jismoniy rivojlanish va kreativ tafakkur

Jismoniy faollik bolaning aqliy faolligini rag'batlantiradi. Yurish, yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash kabi harakatlar orqali bola atrof-muhitni idrok qiladi, fazoviy tasavvuri kengayadi. Bu esa tasavvur, fantaziya va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Masalan:

Raqs, musiqali harakatli o'yinlar bolada ritm, tartib va estetik didni shakllantiradi;

Montessori uslubidagi faoliyatlar (mozaika, sensorika) bola harakatlari orqali tafakkurni rag'batlantiradi;

Noan'anaviy jismoniy mashg'ulotlar (masalan, yoga, mini-treninglar) stressni kamaytirib, tafakkur ochiqqligini oshiradi.

2. Psixologik rivojlanishning o'rni

Bolaning psixologik holati — uning kreativ salohiyati uchun bevosita ta'sir qiluvchi omil. Bu quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

Emotsional barqarorlik;

O'ziga bo'lgan ishonch;

Erkin ifodalanish imkoniyati;

Ota-ona va pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi.

V.V. Davydov va L.S. Vygotskiy nazariyalarida ta'kidlanganidek, bola o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirganda, u ijodkorlikka intiluvchan bo'ladi. Aks holda, qo'rquv, uyatchanlik, baholanishdan cho'chish kabi psixologik to'siqlar uning kreativ salohiyatini bostiradi.

3. Kreativ tafakkurni rag'batlantiruvchi metodlar

Quyidagi metodlar jismoniy va psixologik rivojlanishni uyg'unlashtirgan holda kreativlikni rivojlantiradi:

Rol o'yinlari (role-play games): bolalar turli obrazlarga kirib, yangi fikr va ssenariylar yaratishga harakat qiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari: ranglar va shakllar bilan tajriba qilish orqali bolalar yangi g'oyalarni ifodalaydi.

Muammoli vaziyatlar: bolaning mustaqil qaror qabul qilishini rag'batlantiradi.

Erkin ifoda va fantaziya darslari: "Agar sen qush bo'lsang, qayerga ucharding?" kabi savollar orqali tafakkur faollashtiriladi.

XULOSA

Kreativ tafakkur — bu tug'ma emas, balki tarbiya va rivojlanish natijasida shakllanuvchi ko'nikmadir. Maktabgacha yosh davrida bolaning jismoniy harakatlari, ruhiy holati va atrof-muhit bilan o'zaro munosabati uning tafakkur salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'limda jismoniy va psixologik sog'lom muhit yaratish, ijodiy mashg'ulotlar tashkil etish va bolaga erkin fikrlash imkonini berish nihoyatda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova, M. (2020). Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Qodirova, N. (2019). Kreativ tafakkur va uning yoshga oid xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
3. Runko, M.A., & Beghetto, R.A. (2009). Primary and secondary creativity. New York: Cambridge University Press.
4. Salomova, G. (2018). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari", Psixologiya va hayot jurnalining 3-soni, 45–49-betlar.
5. Karimqulova, F.(2022). Formation of Creative Thinking of Preschoolers as a Pedagogical Problem. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN.-ISSN: 2694-9970, (4), 132-135.
6. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. -ISSN:3030, № 4/2024, 2024-yil.
7. Karimqulova, F. Tafakkur jarayonlari va uning shakllanish bosqichlari. "Жамият ва инновациялар" ilmiy-amaliy jurnal. ISSN: 2181-1415, №2, 2022, 216-221 b, 2022-yil.
8. Karimqulova, F. Maktabgacha yoshdagi bolalar kreativ tafakkurini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish. "SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI " ilmiy-amaliy jurnal. -ISSN 2181-1296 , UDK:373.2 2022, 113-117- b, 2022-yil.